

# Boshlang'ich Sinf O'quvchilari Nutqining Shakllanishida Neyrolingvistikaning Ahamiyati

*Mamirova Madinaxon Abdulkarim qizi*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqining neyrolingvistik xususiyatlarini o'rganish, nazariy va amaliy tadqiq etish orqali ilmiy xulosalar olish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish asosiy maqsadlarimizdan biridir. Neyrolingvistika psixologiyani dolzarb muammolaridan biri odamning subyektiv tajribasi, e'tiqod, ishonchni shakllanishi, dinamik ta'lim, tizimli tafakkur, inson daxoligi, ijod va biznes ustida tadqiqot olib boradi. Ushbu tadqiqotlarni olib borishda qiyoslash hamda kuzatish metodlaridan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** Neyrolingvistika, boshlang'ich ta'lim, tilshunoslik, psixologiya, pedagogika, afaziya, afaziologiya, ikkilamchi buzilishlar, fonetik, leksik, fikr, muloqot, defekt.

Bugungi kunda mamlakatimizda ulkan ijtimoiy islohotlar tufayli bunyodkorlik, obodonchilik, fan va texnika jadal rivojlanmoqda, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarni rivojlanishi natijasida dunyo olimlarining ilmiy izlanishlaridan xabardor bo'lish imkoniyati kuchayib bormoqda. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, "Fanni zamon talablari darajasida taraqqiy toptirish uchun, quyidagi muhim omil zarur! g'oya, moddiy asos, tegishli sharoit va fikr, tafakkur erkinligi"<sup>2</sup>. Hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalarni mujassamlashtirish, ular ichidan eng ko'p samara beradiganlarini tanlash, sinash va amalda qo'llashni yo'lga qo'yadigan tizim shakllanmoqda.

Ta'limdan maqsad: o'qish va bilim olish. Bu ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya hisoblanib, u boshlang'ich ta'limning bosh me'zoni sanaladi.

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash dunyo miqyosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin yaratishni o'z vaqtida anglagan pedagog-psixolog olimlarimiz psixologiyani yangi yutuqlarini tadqiq etmoqdalar masalan, keyingi yuz yil ichida tilshunoslik va psixologiya fanlarida yuz bergan revolyutsion o'zgarish bu neyrolingvistika fanini paydo bo'lishidir.

Bu fan psixologiya, neyrofiziologiya va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan fan hisoblanadi. Neyrolingvistika fanining yo'nalishlaridan biri bo'lgan Afaziya, uning turlari va afaziyaning til sathlarida, ya'ni tilning fonetik, leksik, grammatik va semantik sathlarida namoyon bo'lishini o'rganish, nutqiy buzilishlarni tadqiq qilish logopedik muammolarni bartaraf etishda nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi ilm-fan borasida yuzaga kelgan yutuqlarni o'rganishimiz, tadqiq etishimiz va rivojlantirishimiz zaruriy ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqining neyrolingvistik xususiyatlarini o'rganish, nazariy va amaliy tadqiq etish orqali ilmiy xulosalar olish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Izohli lug'atlarda "Neyrolingvistika [neyro...+ lingvistika] markaziy nerv sistemasida muayyan nutqiy ifodalarni shakllantirish, boshqalaridan farqlay olish va shu kabilar bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi ilm sohasi"<sup>3</sup> ma'nosida berilgan. Umumiy olganda neyrolingvistika bu - miya, tana va tilning o'zaro mutanosib holda ishlashini o'z ichiga oladi. Shuningdek neyrolingvistika psixologiyani dolzarb muammolaridan biri odamning subyektiv tajribasi, e'tiqod, ishonchni shakllanishi, dinamik ta'lim, tizimli tafakkur, inson daxoligi, ijod va biznes ustida tadqiqot olib boradi.

<sup>1</sup> Andijon davlat pedagogika instituti Stajyor-o'qituvchi

<sup>2</sup> I.A.Karimov "Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili". T: "O'zbekiston" 1995 y.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 33-bet, 2017.



O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida va "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"da ta'kidlanganidek, o'quvchini mustaqil fikrlashga, faollikka o'rgatuvchi ta'lim usullarini qo'llash orqali ularning nutqini o'stirish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining asosiy vazifalaridan biridir. Fikr yuritish esa murakkab faoliyat bo'lib maxsus aqliy faoliyat asosida amalga oshadi.

Fikrlash nutqdan ajralmas jarayon bo'lib, bolalar nutqining rivojlanishi ham aynan fikrlash jarayoniga bog'liqdir. Fikr nutq orqali ifoda etiladi va bayon qilinadi. Nutq ta'lim jarayonida alohida o'rin tutadi. O'quvchilar nutqini o'stirish ta'lim-tarbiya ishidagi muhim shartlardan biridir. Nutq buzilishiga "Aleksandr Romanovich Luriya A.P.Pavlov va L.S.Vigotskiylarning ilmiy va amaliy tadqiqotlariga asoslangan holda nazariy ma'lumotlar beradi. U bosh miya faoliyatini uchta katta blokka ajratgan holda afaziyaning 6 ta eng mukammal turlarini ko'rsatadi va shu turlari asosida afaziyaning til sathlarida namoyon bo'lishini tadqiq etganligini ta'kidlaydi."<sup>4</sup>

Neyrolingvistika nutqni tizimli funktsiya, afaziyani esa birlamchi defekt va birlamchi defekt ta'siri natijasida yuzaga keluvchi ikkilamchi buzilishlar, shuningdek, miyaning buzilgan funktsiyalarini qayta tiklashga qaratilgan ish faoliyati natijasida paydo bo'luvchi tizimli buzilish sifatida o'rganadi. Ularni tizimli ravishda o'rganish XIX asrning 2-yarmidan boshlangan. Ammo miyaning shikastlanishida tilga oid bo'lgan faoliyatlarning buzilishi bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar o'rta asr davridan ma'lum bo'lgan. Sobiq ittifoq davrida neyrolingvistik tadqiqotlarning rivojlanishi A.R.Luriya tadqiqotlariga asoslanadi. 50-yillarning oxiri - o'tgan asrning 60-yillari boshida uchta fan – nevrologiya psixologiya va tilshunoslik paydo bo'ldi. Amaliy ehtiyojlar ushbu bilim sohasining paydo bo'lishiga yordam berdi. Afaziologiya - odamlarni davolaydigan tibbiyot sohasi, miyaning mahalliy shikastlanishi bilan nutq buzilishidan aziyat chekish. Afaziya (yunoncha. a - salbiy. zarracha va faz - so'z).

Birinchidan, neyro-tilshunoslikning yutuqlari amaliy muammolarni hal qilish nutq buzilishlarini tashxislash va tuzatish bilan bog'liq. Zamonaviy neyrolingvistika obyektida tadqiqotlar kengaydi, nafaqat nutq patologiyasini, shuningdek, tadqiqot normalarini rus neyrolingvistikasining "otasi", taniqli psixolog va neyrofiziolog Aleksandr Romanovich Luria uni fanning bir sohasi sifatida belgilagan. "Nutq faoliyatining miya mexanizmlari va ular tarkibidagi o'zgarishlar.", "Mahalliy miya shikastlanishi bilan sodir bo'lgan nutq jarayonlari", "Neyrolingvistikaning asosiy muammolari", "Til tizimi nutq xatti-harakatlarining miya mexanizmi bilan bog'liqlik" kabi asarlari ushbu fan rivoji uchun poydevor bo'ldi.

Bilimning maxsus tarmog'i sifatida neyrolingvistika 20-asrning o'rtalariga kelib shakllana boshlandi. Biroq, uning shakllanishidan bir asrdan ko'proq vaqt oldin mahalliy bosh jarohatlarida nutq buzilishi haqida ma'lumotlar bor edi va bu nevrologiya, psixologiya va tilshunoslikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun xizmat qildi. Uning boshlanishi neyropsixologiyaning ikkita asosiy kashfiyotiga bog'liq:

1) miya yarim konteksidagi ruhiy jarayonlarning lokalizatsiyasi; 2) inson miyasining funktsional assimetriyasi.

Birinchi marta miya funktsional jihatdan bir xil emas degan fikr XVIII-asr oxirida vujudga kelgan. Avstriyalik anatomist Frants Jozef Halle. U turli xil nazariyalarni taklif qildi. U odamlar miyaning turli sohalarida aniq lokalizatsiya qilinganda lokalizatsiya nafaqat sezgi va vosita funktsiyalariga, balki bunday narsalarga ham ta'sir qiladi: aql-idrok, xudojo'ylik, o'ziga hurmat, kamtarlik, shaxsiy fazilatlar ota-ona hissiyotlari, musiqiy va tasviriy iste'dod, moyillik turli kasblarga va boshqalarga degan fikrga keladi.

Gall birinchi bo'lib nutq funktsiyasi frontalda lokalizatsiya qilingan degan fikrni bildirdi. Neyropsixologiyaning yana bir boshlang'ich asosi bu funktsional nazariya miyaning assimetriyasi - quyidagicha vujudga kelgan. Ko'plab olimlar, shifokorlar XVIII asr va bundan ancha oldin, inson tanasining tuzilishini o'rganib, ular bunga e'tibor berishgan uning qurilmasining tashqi o'ziga xosligi bilan deyarli to'liq bo'lmaganligi simmetriya. Inson tanasining asosiy harakatlarini va uning hissiyotlarini boshqarish funktsiyalari miyaning ikki yarim sharlari o'rtasida teng ravishda taqsimlanadi. Shu bilan birga chap yarim shar tananing o'ng tomonini (o'ng qo'l, o'ng oyoq) boshqaradi, o'ng tomoni chap tomon. Biroq, deyarli barcha odamlarning bitta qo'li kuchliroq bir ko'z yaxshiroq ko'radi, bir quloq yaxshiroq eshitadi va hokazo. Bu kuzatish yarim sharlarning tengsizligi g'oyasini ilgari surdi. Bilimning yangi tarmog'ining paydo bo'lishi uchun taqdir deb hisoblanadi.

<sup>4</sup> Лурья А.Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга – М, 1969.



Nutq – odamlar til orqali bir-biri bilan muomala va aloqa qilishning alohida usulidir. Til esa ijtimoiy hodisa. Til ayrim kishida mustaqil ravishda mavjud. Tilning ijodkori esa xalqning o‘zidir, tarixan tarkib topgan millatning o‘zidir. Nutq bilan til bir-biridan farq qiladi, lekin ayni vaqtda ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi; nutq ham, til ham bir-biriga bog‘langan, ular birlikda mavjuddir. Inson nutqi yordamida o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini izhor qiladi hamda muloqotdagi boshqa odamlarning fikrini va hissiyotlarini bilib oladi. Nutqiy faoliyat og‘zaki va yozma tarzda amalga oshiriladi. Jamiyatda, nutqida nuqsoni bor insonlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Nutqdagi nuqsonlarni neyrolingvistikaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan afaziologiyada o‘rganamiz. Klinik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, miya faoliyatining buzilishi nutq faoliyatining buzilishiga olib keladi. Nutqdagi bu kamchiliklar esa, albatta, tilning barcha jihatlariga o‘zining ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, o‘quvchilar nutqini o‘stirish ishlari ularning lug‘atini boyitish ishlari bilan bog‘liqdir. Bolaning so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, u shunchalik ravon gapiradi. Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o‘rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Boshlang‘ich sinflarda og‘zaki nutqini o‘stirishda bolalar adabiyotiga doir she‘rlar, hikoyalar, ertaklar bo‘yicha mashg‘ulotlar xilma-xil bo‘lib, darslarda oqilona foydalanish lozim.

### **Adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. T: “O‘zbekiston” 1995y
2. Лурья А.Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга – М, 1969.
3. Asqarova M., Matchonov S. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. Toshkent. "O‘zbekiston", 2001 y.
4. Barotov Sh.R. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. -T.: «O‘qituvchi», 1995.
5. Z.Nishanova, G.Alimova “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” T: 2006.
6. Karimova V. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: A. Qodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 2002.

### **Elektron ta’lim resurslari:**

1. <http://www.ZiyoNet.uz>.
2. <http://www.Pedagog.uz>
3. <http://www.ADU.uz>

